

## MADANIYAT VA SAN'AT RIVOJLANISHINING MADANIY MEROS BILAN UZVIY A'LOQADORLIGI

Samiyev Baxtiyor Norbobo o'g'li

Ilmiy rahbar: **Xolmo'minov Mo'minmirzo**  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
[mominmirzoxolmominov@gmail.com](mailto:mominmirzoxolmominov@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada madaniyat va san'atni rivojlantirishning madaniy meros bilan uzviy a'loqadorligi haqida fikrlar yuritilgan va aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Jamiyat, madaniyat, ma'naviy meros, sivilizatsiya, taraqqiyot, adabiyot, me'morchilik, tarix, tendensiya, innovatsiya.

**Abstract:** In this article, the ideas about the inextricable connection between the development of culture and art and the cultural heritage are discussed and mentioned.

**Key words:** Society, culture, spiritual heritage, civilization, development, literature, architecture, history, trend, innovation.

*Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi  
ma'naviyatdir Shavkat Mirziyoyev*

Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi oldingi jamiyatning madaniy yutuqlarini zaruriy ravishda meros qilib oladi, uni qayta ishlaydi, undan ijodiy jarayonlarda foydalanadi, uni yangi yuqori bosqichga ko'taradi. Insoniyat tomonidan yaratilgan eng yaxshi va qimmatli narsalar, moddiy va ma'naviy boyliklar yangi tarixiy sharoitda o'zlashtiriladi, qayta ishlanadi va rivojlantiriladi.

Har bir avlod o'zi uchun maxsus yangi moddiy baza tashkil etmasligini, ilm-fan va madaniyat yangidan yaratilmasligini, balki o'zidan oldingi avlodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyatdan meros sifatida foydalilanadi. Madaniyat – umuminsoniy hodisa hisoblanadi. U barchaga barovar va tengdir. Masalan, maqomlar, adabiyot, me'morchilik durdonalari, fan-texnika yutuqlari, transport va a'loqa vositalari va boshqalar barchaga tegishlidir. Ammo, bu madaniyatning milliy shakli bo'lmaydi, degan ma'noni anglatmaydi. Chunki u qanchalik umuminsoniy bo'lmasin, baribir uning zaminlari milliylikka borib taqaladi. Umuminsoniyat mulkiga

aylangan har qanday madaniyat ham u yoki bu millat tomonidan yaratiladi, u madaniyatga o‘ziga xos bo‘lgan tomonlarni singdiradi. Masalan, umuminsoniyat multiga aylangan Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlaridagi hunarmandchilik va arxitektura durdonalari, eng avvalo o‘zbeklarniki, ular o‘zbeklarning avlod-ajodolari o‘zlariga xos milliy jilo bergenlar. O‘zbekona bunday san’at asarlari dunyoning boshqa xalqlarida uchramaydi. Xuddi ana shu xususiyat bilan ular milliy hisoblanadi. Shuning bilan birga, ana shu san’at asarlari, o‘zining takrorlanmas qiymati, yuksakligi va butun insoniyatning ma’naviy bahra olishiga xizmat qilish darajasi bilan umuminsoniyat multiga aylangandir. Demakki, madaniyat ham ma’naviyat kabi milliy va umuminsoniy shaklida namoyon bo‘ladi va rivojlanadi.

Madaniyat va san’at rivojlanishida, madaniy merosni a’loqadorligi tarixiy hodisa sifatida bir kun, bir yilda, balki bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. O‘rta Osiyo xalqlari ma’naviy va madaniy tarixning ibtidosi asrlar qa’riga singib ketgan bo‘lib, ularning necha ming yillik ma’naviy kamol pilla poyalarini bosib o‘tganligini aniqlash bugun uchun muhim va ancha murakkab jarayondir.

Boshqacha qilib aytganda, bugungi ayrim sultanatlar ahli qabila bo‘lib yashagan zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilm-fan barq urib yashnagani, tabiiy ilmlar, xususan, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi fanlar madrasalarda o‘qitilgani ilmiy akademiyalar tashkil etilib, mag‘ribu mashriqqa nom taratganini aslasak va bundan har qancha g‘ururlansak arziyi.

O‘tmishdan xalqimiz ma’naviy madaniyatning uzviy qismi bo‘lgan dinni ya’ni islom dinimizni rivojlantirishga ham o‘zining munosib hissasini qo‘shgan. Dunyoda eng mashhur hadisshunoslar oltita bo‘lsa, shulardan to‘rtasi bizning jonajon yurtimizdan chiqqan. Bu fikrlarimizning dalili sifatida shuni aytishim kerakki, shu buyuk allomalarimizning yorqin xotirasiga bag‘ishlab, 1998-yilda Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi bizning yurtimizda va butun islom dunyosida nishonlangan bo‘lsa, 2000-yilda Imom al-Moturudiy tavalludining 1130 yilligi, Burxoniddin al-Marg‘iloniyning tavalludining esa 910-yilligi nishonlandi.

Ular qoldirib ketgan meros bugungi kunda diniy qadriyatlarimizni tiklashimizda asos bo‘lmoqda, ma’naviyatimizni, qalbimizni va ruhiyatimizni boyitmoqda. Ularning asarlari o‘zbek xalqining moddiy va ma’naviy boyligi bo‘lishi bilan birga butun dunyo xalqlarining multiga aylangandir. Madaniy merosni tushunmasdan ma’naviy merosni tushunib olish juda qiyin. Bu tushunchalarda umumiylig bo‘lsa ham, ular birday emas, o‘zaro qaysi bir jihatlari, xususiyatlari bilan farqlanadi. Bundan oldingi masalada ko‘rganimizdek har bir jamiyat va davr o‘z madaniyat turiga ega bo‘ladi. Jamiyat, davr o‘zgarishi bilan uning madaniyat turi va ma’naviyatida o‘zgarish, yangilanish bo‘ladi, ammo, madaniy taraqqiyot uzilib qolmaydi, ilgarigi madaniyat; sivilizatsiya yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki madaniy meros sifatida saqlanib qoladi. Meros – insoniyatning

har bir tarixiy bosqichida yashagan avlodlar tomonidan yaratilgan va keyingisiga yetib kelgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklar majmuidir. Madaniy meros ham meros doirasiga kiradi, ammo, undan biroz farq qiladi. O’tmishdagi barcha madaniyat yodgorliklari meros sifatida saqlanib qolishi mumkin, lekin ularning hammasi ham madaniy qadriyatga ega bo‘lavermaydi. Madaniy meros kishilikning kelgusi taraqqiyotga, ma’naviy yuksalishga xizmat qiladigan, unga ijobiy ta’sir qiladigan qadriyat ahamiyatiga ega bo‘lgan tomonlar hisobga olinadi.

O’tmish avlodlar yaratgan madaniy yodgorliklarning hammasi ham madaniy meros bo‘lavermaydi, chunki o’tmishdan qolgan narsalarning hammasi ham qadriyat ahamiyatiga ega emasligi, hammamizga ma’lum. Masalan sho‘rolar davrida yaratilib, uning siyosati, madaniy merosni targ‘ib etgan, endilikda o‘z umrini yashab o‘tgan kitoblarning bugun uchun ham, kelajak uchun ham qadriyati, ahamiyati yo‘q. To‘g‘ri ular ham meros, lekin madaniy meros emas, ularni tarixiy fakt sifatida saqlab qolish mumkin. Yuqoridagilardan kelib chiqib, madaniy meros deb, o’tmish avloddan keyingi avlodga vorislik asosida qoldirilgan, zamonda barqarorlik sinovidan o‘tgan, saralangan insoniyatning hozirgi va kelgusi taraqqiyotiga xizmat qiladigan moddiy va ma’naviy madaniyat majmuiga aytishimiz mumkin.

Madaniy merosda ko‘proq umumiylik ustunlik qilsa, ma’naviy merosda xususiylik ustunlik qildi. Madaniy meros umuman madaniyat yutuqlarini o‘z ichiga qamrab olsa, ma’naviy meros ma’naviy madaniyat yutuqlarini o‘z ichiga qamrab olishi bilan farqlanadi. Ma’naviy boyliklar avloddan avlodga, bir tuzumdan ikkinchi tuzumga meros sifatida o‘tadi va jamiyat, uning ma’naviy taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviy meros deb uzoq va yaqin o’tmishdagi, hozirgi davrdagi ma’naviy jihatdan g‘oyat qimmatli, o‘chmas iz qoldirgan mangu yashaydigan, ijtimoiy manfaati va ehtiyojiga, ezgulikka xizmat qiladigan umuminsoniy ma’naviy boyliklarga aytildi. Ma’naviy meros ma’naviy qadriyat sifatida namoyon bo‘lib, unga ilm-fan, jumladan, falsafa, adabiyot, san’at, ahloq, dindagi real, dunyoviy ta’limotlar, hurfikrlik va boshqalar kiradi. Ma’naviy meros zamonlar o‘tishi bilan o‘z qadrini yo‘qotmaydi, balki sifat jihatidan yangi ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy meros kishilar ongiga, ichki dunyosiga, his-tuyg‘usiga ta’sir etib, ular ongini boyitadi, axloq-odobni ezgulik sari yetaklaydi.

Ma’naviy meros biror xalq, millat, uning vakillari tomonidan yaratilib, so‘ng umuminsoniyatning ma’naviy boyligiga, merosiga aylanib qoladi. Markaziy Osiyo xalqlarining o’tmish avlodlari qoldirgan ma’naviy merosi bunga misol bo‘la oladi. Biz Markaziy Osiyo mamlakatlari ma’naviy merosimiz jihatidan jahondagi oldingi o‘rinlardan birini egallaymiz.

Sivillizatsiyaning madaniyat farqi shundaki, u o‘ziga xos bo‘lgan, o‘zgalardan tubdan farq qiladigan, ammo, o‘z davri taraqqiyotida takrorlanmas iz qoldirgan fan,

madaniyat, texnika, ijtimoiy ong, ma’naviyat va boshqa sohalardagi buyuk, yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. Uning harakterli tomoni shundaki, u o‘zidan oldingisini qabul qilmaydi, balki sifat jihatidan yangi, eng o‘xshamagan o‘zgarishlarni vujudga keltiruvchi jarayon hisoblanadi. Sivillizatsiya har bir xalqning yoxud jamiyatning, tarixiy bosqichining o‘ziga xos tarixiy-madaniy rivojlanishi, shakllangan qadriyatlar, tafakkur taraqqiyoti hisoblandi. Hozirgi davrda ilmiy adabiyotda unu “Sharq” va “G‘arb” sivillizatsiyasiga bo‘lish qabul qilingan. Insoniyat tarixidagi bu sivillizatsiyalar hind, konfusiylar, buddaviylik, musulmon yoki katolik, pravoslav va hokazolarning paydo bo‘lish I shaklida namoyon bo‘lgan.

Bugungi sivillazatsiya insoniyatning olamini bilish, undan umumbashariy manfaatlari yo‘lida foydalana bilishi, har bir xalqning umuminsoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma’naviyati va ma’rifati shaklida namoyon bo‘lmoqda. Shunday qilib, madaniyat, ma’naviyat, ma’naviy meros, sivillazatsiyalar yutug‘i jamiyat va inson ma’naviyatining rivojlanishida, ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun mustaqillikning dastlabki kunlaridan o‘tmishda to‘plangan ma’naviy merosimizni o‘zlashtirish va tiklashga qat’iyan kirishildi. O‘zbek millati o‘zining milliy-ma’naviy “qiyo fasiga” ega bo‘ldilar.

Madaniy merosning madaniyat va san’atda tutgan o‘rni shundaki, u inson, jamiyat yoxud millat yoki guruhlarning intilishlari, ruhiyatlar va kayfiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Ma’naviyat singari madaniy merosning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda kattadir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Madaniy meros faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, har qanday jamiyatni sog‘lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o‘z muddaolariga erishishi uchun ma’naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo‘lib kelgan.

Xullas, madaniyat va san’at – madaniy meros umummillatga, umumxalqqa, butun jamiyatga taaluqli ulkan g‘oyalar birligidir. Ammo, uning ildizlari har bir insonning qalbida, vijdonida, imonida, aql-idroki va tafakkuridadir. Shu bois, haqiqiy, hayotiy, chuqur insoniy madaniy meros bugungi kunda diniy qadriyatlarimizni tiklashimizda asos bo‘lmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Sh.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil yakunlari va 2017-yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017-yil 16-yanvar. N11-soni.
2. U.Mahkamov. Axloq-odob saboqlari. –T: “Cho‘lpon”. 1994-yil. 30-bet.

3. O‘zbekiston milliy ensikolopediysi. –T: Davlat ilmiy nashriyoti. 2012-yil. 78-bet.
4. S.A.Shirmatova, X.Shodiyev. “Madaniyat va san’at sohasidagi ma’rifiy islohotlar tendensiyasi” mavzusidagi diplom ishi. –T: 2021-yil.
5. B.Samiyev, M.Xolmo‘minov. RAHBARNING ISH USLUBIDA IMIJNING O‘RNI | Educational Research in Universal Sciences <http://erus.uz/index.php/er/article/view/1975>
6. B.Samiyev, M.Xolmo‘minov. MADANIY-OMMAVIY TADBIRLARNING JAMIYAT MA’NAVIY HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI| Educational Research in Universal Sciences <http://erus.uz/index.php/er/article/view/>